

## JAHON PSIXOLOGLARINING TADQIQOTLARIDA OILAGA BORASIDAGI ILMIY QARASHLARI

**Raxmonova Diyora Adxamovna**  
*Alfraganus University magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada jahon psixologlari asarlarida oilaviy munosabatlarga oid zamonaviy tadqiqotlar berilgan. Ijtimoiy tarmoqlarni inson psixologiyasi ta'siri ko'rsatilgan. Internet tarmoqlari bola tarbiyasi, ta'limi va ongiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *internet, oila, oilaviy munosabatlar, nizo, bola, tarbiya.*

### KIRISH

Oila barqarorligida internetning ta'sirini o'rganish va xazirgi kunda oilalarda uchraydigin muammolarni, ajrimlarni, farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir etuvchi omillar va internetning ta'siri hozirgi kunda juda ommalashib borayotgan muammolardan bir deb hisoblanadi. Men bu ilmiy izlanishimda asosiy urg'uni oila barqarorligida internetning ta'sirini va yoshlar oilalarning onginig qay darajada tubanlashib borayoganini va xozirgi jamiyatimizning asosiy ustivor muammolaridan biri ekanligini angladim.

Oila mavzusida rus va xorij olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar bulardan: S.V.Kovalyov ta'rifiga binoan, balog'atga etgan yosh yigit qizlar oila hayot va turmush qurish to'grisida yetarli darajada ma'lumotga ega bo'lmaganligi, zamonaviy oila ko'rinishida jitmoiy tarmoqlar orqali ko'rish va tasavurlarga ega bo'lishi natijasida turmushdan so'ng keying hayotida bir qanch qiyinchiliklar va tushunmovchiliklar kelib chiqadi. Bu esa oilaning mustahkamligi va barqarorligiga katta ta'sir qiladi. S.V.Kovalyov mana shunday hatoliklarni oldini olish maqsadida yoshlarni oila muhitiga va o'qish maskanlarida oila va turmush haqidagi tasavurlarni yoshlarning ongiga singdirish, qurilajak oila haqida ular ongidagi romantika xos, turlicha hissiyotlardan, rang-barangmanipulyatsiyali berilishlardan qutqarish borasida katta amamliy ishlar ma'ruza va seminarlar bilan qatmashgan. Yoshlar o'rtasida ajrimlarning oldini oilsh borasida amaliy ishlarni keng targ'ib qilgan<sup>142</sup>.

V.G.Paxomova «Osobennosti aktualizatsii obraza Ya v usloviyax virtualnoy realnosti kompyuternix igr» O'sib kelayotgan yosh avlodni internet o'yinlariga tobeligini o'smir yoshlarda "Men obrazining shakillani " bilan bog'liq muammolarni yoritib berishda muallif asosiy e'tiborini o'smirlarning Aslida bugungi kuninig asriy kassalligiga aylangan internet tobeligidir. Buning asosiy sababalari yoshlarning bo'sht vaqtlarini unimli va samara foydalanmasliklarida ko'rishimiz mumkin. Bu masalada faqatgina yoshlar yoki internetmas balki ota-onalarning farzandarini

<sup>142</sup> kovalyov s.v. Psixologiya sovrimennoy sem'i-m.:prosveshenie.1988.-210b

qarovsiz kodirishidir. Yoshlarimiz vertual olamni muloqot va o'yinlar makoni deb ta'riflanmokda o'smirlar tomonida chunki, bu yo'l yoshlarga xech qanday ma'suliyatni yuklamaydi, natijada yoshlarimiz ma'sulyatsiz xayotning yengil yelpi yo'llarni tanlamokdalar.

Buning zamirida yoshlarning menninig yo'qolishi va psixik jarayonlarining buzilishiga olib kelmoqda. Biz yoshlarimizni men borazini buzilishini oldini olmokchi bo'lsak asosiy e'tiborni farzandlarimizning bo'sh vaqtlarni unimla tashkil qilishimiz kerak. Tadqiqotning g'oyasi o'yinning virtual haqiqatida vaziyat qonuniyatlarini izlash bilan bog'liq. Bugungi kunda dunyo kompyuter va Internet texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan ajralib turadi, bu butun aqliy va aqliy o'zgarishlarni sezilarli darajada o'zgartiradi insonning tuzilishi, uni an'anaviy kundalik tizimdan chiqib o'zgarishiga oilb keladi. Bu butun psixika va psixikani sezilarli darajada o'zgartiradi insonning tuzilishi, uni an'anaviy kundalik tajribadan yo'naltirish tubdan isloh qilmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, virtual haqiqat to'g'ridan-to'g'ri o'yin kabi hodisa bilan o'ralgan.

Virtual o'yinning paydo bo'lishi tadqiqotlarning e'tiborini, uning ta'siri masalalarini o'rganishga qaratdi, uning xavfsizligi haqidagi g'oyalar va uning imkoniyatlarini maqbul ravishda ishlatish imkoniyati beradi. Biz "kompyuter o'yinining virtual haqiqati" tushunchasini ko'rib chiqamiz foydalanuvchi o'z bilimidan tashqarida ma'lum bir matritsaga ega bo'lgan haqiqat sifatida (kompyuter o'yini shaklida), shuningdek manipulyatsiya variantlari o'yin ishlab chiqaruvchisi tomonidan berilgan ushbu matritsaning ichida yashaydi. Shu bilan birga, foydalanuvchining tasavvurlari cheklangan, berilgan variantlarning maydoni bilan ko'rsatilgan. Yuqorida aytilganlarning barchasi kompyuter va boshqa har qanday virtual haqiqat o'rtasidagi tub farqlardir. Ushbu haqiqiy shu bilan muloqot qahramonlarga, masalan, film yoki spektaklga hamdardlik bildirishdan farqli o'laroq (rasmiy, mexanik) sheriklikning mutlaqo boshqacha shaklini nazarda tutadi (masalan virtual haqiqat shakllari). Bu shaxsning asosiy asosi, uning qadriyatlarini, partiyaviy uslubi, o'zini o'zi qadrlash va o'zini o'zi qabul qilish xususiyatlari sifatida imidj shakllanishining transiga ta'sir qilishi mumkin emas. Biroq, bu kompyuter ta'sirini o'rganish bilan bog'liq jihatlardir<sup>143</sup>. Kompyuter o'yinlari shunisi bilan inson ongiga ta'sir qiladiki borgansari o'zini faqat shu ijtimoiy tarmoqlarda ko'radi, natijada ijtimoiy birlik faqat vyertual olam bilan chambarchas bog'lanish yuzaga keladi.

Biz farzandlarimizni ijtimoiylashuv muhitga tayyorlashga tug'ulganidan boshlab tarbiyalab boramiz, ularning sog'lim psixologik muxitda rivojlantirishiga yordamlashamiz. Biz ota-onalar qanchalik qo'llab quvatlamaylik buning o'rniga bu yoshlar tubanlashib biomoqd, hayotining bor mazmuni faqatgina kompyuter o'yinlari bo'lmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar ya'ni virtual o'yinlar bizni bir muddat boshqa bir dunyoni ko'rishga unda qisqa vaqt mobaynida yashashga, o'zimizni boshqa bir

<sup>143</sup> paxomova viktoriya georgiyevna. Avtoreferat . Rostov-na-danu-2022

ochilmagan qirralarimizni ochish yordam bermoqdami yoki aksinchami. Ijtimoiy tarmoqlarga ko'p marotabalab kirish natijasida o'zining virtual olamdagi qahramonlarining ro'lga odatlanib borishi natijasida haqiqat deb bilgan oilamning yo'qolishiga oilb kelmoqda. Bunday mukkasidan ketishning natijasida vaqtning qiymati uning inson umridagi eng bebaho qadirli narsasi ekanliginin bilmay o'tayotgan yoshlar qancha jamiyatimizda.

Internetga qaramlilik psixologik bir qancha muammolarni keltirib chiqarmoqda. Internatga tobiylik zidiyatli vaziyatlarni, surunkali depressiyani, keltirib chiqarmoqda, reallikdan qochib virtual oilamda yashash, jamiyatning ijtimoiy moslashuchanlik jarayonlariga moslashishga qiynalishi va xayot turmush tarzining yo'qolishi va yana bir qancha sabablarga oilb kelmoqda. Internetning o'qishga, o'sishga qanday ta'siri bor, bir tomondan bizning farzandlarimiz mustaqil tarzda mustaqil o'qiydi bilim va malaka ko'nikmaga erishadi, lekin bu o'sib kelayorgan shaxsni qolibga soilib q'oyishi mumkunku. Buning salbiy oqibatlari ham yo'q emas, yoshlar meyorini qanday tushunish bog'liqdir. Shuni alohida takidlash kerakki o'smir va o'spirinlar internet orqali pornografiksaytlarga kirib o'zining jinsiy a'zolarini rivojlantirishi mumkun va buning psixologik og'ishishlarini keltirib chiqaradi. Yana xozirgi kunning eng insonni ta'jubga soluvchi hodisa bu o'z joniga suyuqasd qilish xisoblansa yana bir jomoni terroristic guruhlarga o'zi amglamagan xolda qo'shilib qolishi sanaladi.

Bunday saytlarni ota-onalar tomonidan nazoratga oilnishi kerak, chunki biz farzandlarimizning kelajagiga befarq bo'lmasligimiz lozim. Bu turdagi ijtimoiy tarmoqlarga kirish va foydalanish oqibatlarida har bir shaxsning ijtimoiy normalardan og'ishishlar yuzaga keladi. Internetga tobelik natijasida yoshlarning o'z-o'zini tushina oilmasligi va anglayolmasligi va "Men" obrazining yo'qolishi bilan farqlanadi. Bundan tashqari o'z-o'ziga baho hamda o'z-o'zini qadrlash mexanizmlariga ham jiddiy putur yetishi mumkin. Internetni mening fikrimcha foydalanish kerak likin buning meyorri bo'lmog'I lozim sanaladi va xar safar farzandlarni nazoratga oilb yurishimiz lozimdur. Xozirgi zamon bolalari kompyuter o'yi nlari olami hamda ijtimoiy tarmoqlar kengayib borayotgan davrda o'sib, ulg'aymoqda. Bu quvonarli hol albatta. Bolalarimiz virtual olamga bog'lammasligi, haqiqiy olam emasligini bilib anglab o'sishlari shart.

Sank-Piterburglik psixolog oilm S.I.Golod oila tushunchasini faqat er-xotin va farzandlardan iborat deb tassavur qilgan. Oila tuzilishi va turlarga bo'linganda rus oilamlarning turlicha fikr va qarashlari mavjud bo'lib. Bunda oilaning rollari ijtimoiy nufuzi, etnik va etnogeografik tuzilishini ham nazarda tutgan. S.I.Golod monogam oiladagi shaxslararo munosabatlarni tabaqalanishni inobatga oilingan va taklif bergan. Golodning kitobida rossiyada ommalashgan tabaqali oilalarni ham o'rgangan, bunda asosiy e'tabor jamoatchilik e'tiborinin tortgan masala shuki tabaqalanish natijasida oilaning rivoji va uning kelajagining tuzilishi qay ko'rinishda ekanligiga

qiziqqan. Bu tabaqalanish o'zi qadim zamonlardan beri bo'linib kelayotgan muammo siratida qaralmoqda, chunki insoniyat tomonidan tabaqalanish eng tubanlikka yuz tutishining bir ko'rinishi sanaladiqaralgan.

XX- asrning oxirlarida noto'liq oilalarning ko'payishi bilan ajrimlar soning ortib borishi juda ajablanarli holat xisoblanadi. Golodning tadqiqotlarida Rossiyada ajrimlar soni har 100 ta nikohdan 51 nafar juftning ajralishiga to'g'ri kelmoqda. Bunda ota-onalik rollarining bajarilmasligi, otaning oilada o'rni va farzand tarbiyasidan chetlashtirilishi, bora-bora farzanlar bilan yuz ko'rmas darajada bo'lib ketishlari ham bu zamonamizning achinarli hollaridan biri sanaladi. Noto'liq oilalar jamiyatimizda ortib borishi bilan bosh toliq oilalarning oila reprodaktivligiga salbiy ta'sir qilmoqda. Oilalarning ajrimi bu yoshlarga qanday o'rnak bo'lishi kishini qiziqtirib quyapdi. Bir juft ajrashgan oila bir qancha to'liq oilalarga ta'sirinin ko'rishimiz mumkin. Buning natijasida oila atalmiz qo'rg'onning kuchi nufuzi ning kelajak va nifuzi qay darajada bo'lushinin tasavvur qilyapsizmi. Ohirgi yillarda xattoki oila qurmastan ham fuqarolik shartnomasi asosida oila qurush va uning qulay afzalliklarini ko'rib yoshlarimiz shu turdagi oila turlariga qiziqmoqdalar. Oila va turmush qurushning Ijtimiytlashuvdagi yana bir mumamolariga oilb kelishini sabab bo'lmoqda .

N.N.Obozor er-xotinlarning oila hayotidan qonoqmaslik, munosabatlarning parchlanishiga olib keluvchi sabab ijtimoiy-iqtisodiy funksiyaning tenglashtirilganligi deb xisoblaydi. Xozirgi kunda er-xominlarning ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan teng ekanligi ular o'rtasida funksional majburiyatlarni taqsimlashda yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Olimning ta'kidlashicha , “ijtimoiy tarixiy tajriba va keyin ortirilgan tajribalar bugungi avlodning funksiyalarini psixologok taqsimlash jarayonini qiynalmasdan va “asoratsiz” bo'lishini kafolatlab olyapti”<sup>144</sup>. er-xotinning turmushdan qoniqmasligiga bir qator masalalar bor, bulardan:

Erning xotinidan ko'ngli qolishi

Erning oiladagi o'rnining yo'qolishi

Erning iqtisodiytamitotga etalicha taminlamasligi

Er-xotinning o'rtasidagi komunikativ munosabatining buzulishi.

Farzandlarning ko'z o'ngida shaxsiy munosabatlarning buzulishi va bexurmatsizliklar ham bugungi kunning oila borasidagi muammolarining buzilishiga, er-xotin munosabatlarning tubdan to'g'ri shakillanmaganiga sabab bo'lmoqda.

Aslida er-xotin bir-birini tushunishi xurmat qilishi va eng asosiysi sevgi muhabbatli bo'lishi zarur. Farzandlar ham ota-onanig bir-biriga bo'lgan bunosabatlarini ko'rib ularda oilaga bo'lgan tushunchasi, dunyo qarashi, oilaning qadir qiymati ortishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunning er-xotinlarning tengligi nafaqat iqtisodiy jahatdan balkim ijtimoiylashuvdagi bir qator masalalarni echishga yordam berishi bilan ajralib turadi.

<sup>144</sup> obazov n.n.psixologiya mejlichnostnix otnosheniiy.-kiev: izd-vo un-ta.1990.-192b

Oilada er-xotning emotsional his tuyg'ularni yo'qolmaslikning yo'li bir-birini tushunish qadrlash qo'llab quvatlash ardoqlash bilan birga ishonchning oiladagi ro'li, o'rni, qatigli bilan oila qurg'oninig mustahkamlashga yordam beradi.

Yu.S.Kotelnikova yosh oilalarda nomeyoriy krizislar yuzaga kelishining psixologik xususiyatlarinin birinchilardan bo'lib sistemali o'rgangan va nomeyoriy krizislarning yuzaga kelishi sabablari,kechish jarayonlari bilan bog'liq xarakterli jihatlari aniqlagan. Oilmning fikricha oila qurayotgan yoshlarning ijtimoiy psixologik, iqtisodiy va ma'naviy-marifiy jihatdan qanchalik tayor bo'lishsa, krizislar shunchalik yengil o'tadi. Shu bois yosh oilaning taqdiri uchun ma'sullar krizis bosqichlariga alohoda e'tabor bilan yondashib, aynan shu oilaga xos psixologik xususiyatlarni o'rganib, kelin-kuyov yaqindan madad berib borilsa oilalarda buzilishlar va psixologik krizislar oldini oilish mumkin<sup>145</sup>.

XX asrning 50-yillarida g'arb mamlakatlarida yuzaga kelayotgan oilaviy munosabatlar krizislari sodir bo'lmoqda. Er-xotin va bolalarni oilaviy munosabatlarda yuzga keladigan masalalarda va buning echimlarida emotsional va nomeyoriy krizislarni boshidan kechimoqdalar. Bunday nomeyoriy krizislar oilaviy munosabatlarning buzulishiga va tubdan yo'qolishiga sabab bo'lmoqda. Nomeyoriy krizisni jitimoiylashuvdagi yangicha "Ommaviy madaniyat"ning kirib kelishi ba buning natijasida jamiyatning ijtimoiylashuviga ta'sirini ko'rishimiz mumkun. Ommalashuv kerak lekin bu oilaning parokanda bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi lozim. Jamiyatning rivojlanishi oila va oilaviy munosabatlarning buzilishi oila kelmasligi kerak, chunki oilada er-xotin, farzand o'sayotgan ekan bolaning to'liq oila, sog'lom oila turmushni bilib anglab ulg'yishi kera. Afsuski bu g'arb madaniyati, uning jamiyatimizga kirishi bilanoq oiladagi nomeyoriy krizislarni keltirib chiqmoqda. G'arblik ayollar oila quish, bola tug'ish kabi reprodaktiv rivojlanishni xoxlamasliklari buning natijasida o'zini sevish ya'ni gedonizim g'oyalarining rivojlanishi, shaxsning o'z-o'zini sevishi kabi kibirli mavkurasi rivojlanib shakillanib bormoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алексеева И.Ю. Интернет и проблема субъекта / И.Ю. Алексеева // Влияние Интернета на сознание и структуру знания / под ред. Розина В.М.- М., 2004. -С. 24-25.

2. Сергиенко Е. А., Ветрова И. И., Волочков А. А., Попов А. Ю. Адаптация теста Дж. Мэйера, П. Сэловея и Д. Карузо «Эмоциональный интеллект» на русскоязычной выборке // Психологический журнал. 2010 Т. 31 № 1 С. 121-139.

3. Фомичева Ю.В. Психологические корреляты увлеченности компьютерными играми / Ю.В. Фомичева, А.Г.Шмелев, И.В. Бурмистров // Вестн. Мое. унта. Сер. 14. Психология. - 1991. - № 3.-С. 27-39.

<sup>145</sup> kelli dj. Psixologiya lochnosti: teoriya lichnosnix konstruktov. Sankt-peterburg,2000,-356b

4. Чудова Н.В. Особенности образа "Я" "жителя Интернета" // Психологический журнал. - 2002. - Т. 23. - №. 1. - С. 44-52.

5. Янг К. Диагноз Интернет — зависимость / К. Янг // Мир Интернет. - 2000. - № 2. - С. 24-29.

6. Seo M. Internet addiction and interpersonal problems in Korean adolescents / M. Seo, H.S. Kang, Y.H. Yom // CIN: Computers, Informatics, Nursing. - 2009. -Vol. 27, N4.-P. 226-233.

7. Young K.S. Internet addiction: Personality traits associated with its development / K.S. Young, R.C. Rogers // Paper presented at the 69th annual meeting of the Eastern Psychological Association, 1998. - URL: [http://www.netaddiction.com/articles/personality\\_correlates.pdf](http://www.netaddiction.com/articles/personality_correlates.pdf).